

# Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi

## 2018 yilning yanvar-avgust oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1714,5 mlrd.so'mni**, o'sish sur'ati - **123,1 % ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **103,8 % ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **43,7 % ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlarida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi – **72,3 % ni**, oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi – **24,5 % ni** tashkil qildi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 1714,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 123,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining - 23,9 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 85,6 punkt), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 19,5 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 5,8 punkt), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 13,2 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 6,6 punkt) va SUV bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 29,4 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 2,0 punkt) o'sishi hisoblanadi.

### 2018 yilning yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda.



### **Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 99,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha ko'mir va lignit qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1,6 martaga, tog'-kon sanoatining boshqa faoliyati - 1,6 martaga, tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar – 2,1 % ga va xom neft va tabiiy gaz qazib olish – 1,2 % ga oshgan.

#### ***Yanvar-avgust oylarida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
-------------------------------	--	-------------------------------	-------------------

**Toshko'mir, ming t.**

72,5



115,7

159,6



**Xom neft, ming t.**

57,2



57,0

99,6



**Shag'al, ming t.**

8,9



24,2

2,7m



**Osh tuzi, ming t.**

26,4



6,2

23,6




### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2018 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1714,5 mlrd. so'mni va o'tgan yilga nisbatan 123,1 % foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 34,5 % ni (2017 yil yanvar - avgust oylarida - 41,5 %), tekstil mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,1 % ni (11,7 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,6 % ni (13,9 %) va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 8,8 %ni (10,0 %) tashkil etdi.

#### **Yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan paxta xom ashyosi – 11,8 martaga, makaron mahsulotlari – 2,6 martaga, beton – 2,4 martaga, paxta yog'i – 2,1 martaga, vino – 14,0 % ga, muzlatilgan sabzavotlar (kartoshkadan tashqari) – 9,7 % ga, neft bitumi - 2,3 % ga va nefat mahsulotlari – 13,0 % ga oshgan. Shu bilan birga tuz, bug'doy uni, non (600 gr), aroq, medikamentlar, gazoyli (dizel yoqilg'i), mazut ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

**Yanvar-avgust oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
<b>Paxta tolasi, t.</b>			
2827		37240	13,2m ↑
<b>Paxta yog'i (tozalangan), ming t.</b>			
4407		9185	2,1m ↑
<b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b>			
9,2		8,4	90,6 ↓
<b>Un, t.</b>			
71778		67834	94,5 ↓
<b>Aroq, ming l.</b>			
1288,8		1201,0	93,2 ↓
<b>Beton, t.</b>			
31884		75713	2,4m ↑



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 112,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,6 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-avgust oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida boshqa bug' va issiq suv hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,0 % ga oshganligi kuzatildi. Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar hajmining (82,4 %) pasayganligi kuzatildi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,0 % ni) tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 65,7 % ga, tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 0,4 % ga oshganligi kuzatildi, axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar (6,3 mlrd so'm) yo'lga qo'yildi. Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar hajmining (91,9 %) ga pasayganligi kuzatildi.

### **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 749,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 3,8 % ga o'sishi ta'minladi. Jami sanoatdagi ulushi esa 43,7 % ni tashkil etdi.

#### **2018 yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**




2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 23,7 % dan 2018 yilning yanvar-avgust oylarida 24,5 % ga oshishi kuzatildi.

### **Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 20,1 % ulushini), Jarqo'rg'on (21,7 %) va Denov (14,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2018 yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari**


(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)



Shu bilan birga eng kam ulushi Muzrabot (1,7 %), Boysun (2,0 %), Oltinsoy (2,3 %), uzun (2,8 %) va Angor (2,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida Qiziriq (2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 207,7 % ga), Angor (183,6 % ga), Muzrabot (162,0 % ga), Sho'rchi (138,1 %), Qumqo'rg'on (133,5 % ga), Sherobod tumanlarida (130,1 % ga) va Denov (125,6 %) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi kuzatildi.

**2018 yil yanvar-avgust oylarida tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**



**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,5 % ga oshishini ta'minladi. O'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 45,5 % tashkil etmoqda.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

Z.Turanazarov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-80-46

(0376) 223-07-24